



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	



TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISH XUSUSIYATLARINING TAFOVUTLANISHI

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti,
"Amaliy psixologiya" kafedrası dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



ORCID: 0000-0003-4930-2045

Annotatsiya: Mazkur maqolada turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining ahamiyati, xorij psixolog olimlarining psixologik qarashlari hamda hayot va faoliyat davomida o'zini o'zi faollashtirishning muhim jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, turli yoshdagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish darajasining namoyon bo'lishi bo'yicha tafovutlar doirasida olib borilgan tadqiqot ishining miqdor va sifat tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, shaxs faolligi, ilk o'spirinlik, o'spirinlik, yetuklik, ijodkorlikka intilish, avtonomlik, bilish ehtiyojlari, autosimpatiya.

Abstract: This article extensively highlights the significance of self-actualization characteristics in individuals at different age stages, as well as the psychological views of foreign scholars and the essential aspects of self-actualization throughout life and activity. Furthermore, the paper presents a quantitative and qualitative analysis of a study conducted within the framework of examining differences in the manifestation of self-actualization levels among individuals of different ages.

Key words: elf-actualization of personality, personal activity, early adolescence, adolescence, maturity, aspiration for creativity, autonomy, cognitive needs, autosympathy.

Аннотация: В данной статье широко освещается значение особенностей самоактуализации личности в различные возрастные периоды, психологические взгляды зарубежных учёных, а также важные аспекты самоактуализации в процессе жизни и деятельности. Кроме того, представлен количественный и качественный анализ результатов исследования, проведённого в рамках изучения различий в проявлении уровня самоактуализации у лиц разного возраста.

Ключевые слова: самоактуализация личности, активность личности, ранняя юность, юность, зрелость, стремление к творчеству, автономность, познавательные потребности, аутосимпатия.

KIRISH

Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish darajasini aniqlashdan iborat. Bundan ko'zlangan maqsad asosida ilk o'spirinlik, o'spirinlik va yetuklik davridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirishning tarkibiy tuzilmalariga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Ayniqsa, turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirishning qaysi tarkibiy komponentlari yetakchi ekanligini aniqlash, tafovutli jhatlarini o'rganish va ularni tahlil qilish tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"O'zini o'zi faollashtirish" atamasi ilk bor ilmiy kategoriya sifatida K.Goldshteyn (1939) tomonidan kiritilgan. U o'zining kognitiv reabilitatsiya nazariyasiga asoslanib, bemor shaxsi mazmunida simptomlarni ko'rib chiqishni taklif etgan. U miya jarohatlari bilan og'rigan bemorlar xulqidagi bir qator o'zgarishlarni "o'zini o'zi faollashtirish" va "o'zini o'zi namoyon qilish" tushunchalari bilan tushuntirgan. K.Goldshteynga ko'ra, "o'zini o'zi faollashtirish" tananing jarohat ta'siri ostida qayta qurishga qobiliyatini ifodalaydi" ^[1]. Uning ta'kidlashicha, o'zini o'zi faollashtirish tananing yagona va asosiy motivi bo'lib, butun organizm o'zini ro'yobga chiqarishi, rivojlanishi, o'zini o'zi kamol toptirishi, shaxsning ijodiy intilishi uchun asosi bo'luvchi xususiyati sifatida xizmat qiladi.

Maslou bo'yicha, o'zini o'zi faollashtirish – bu insonning o'zi xohlagan va bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsga aylanishi. O'zini o'zi faollashtirish – bu shaxsning iste'dod va qobiliyatlarini to'laigicha namoyon etish; bu shaxsning yashirin ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishidir; har bir inson qobiliyat va iste'dodga ega ^[2].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumki, turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatini ilmiy tadqiq etish maqsadida N.F.Kalinaning "Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish" metodikasi tanlab olindi. Mazkur metodika ilk o'spirinlik, o'spirinlik va yetuklik davridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirishning vaqtini mo'ljalga olish, qadriyatlar, inson tabiatiga nazar, bilish ehtiyojlari, ijodkorlikka intilish, avtonomlik, spontanlik, o'zini o'zi anglash, autosimpatiya, aloqa o'rnatish, muloqotdagi egiluvchanlik kabi muhim komponentlarning namoyon bo'lish darajasini tekshirishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur metodika tanlab olingan sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan hamda 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval: Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish bo'yicha tafovutlarning ifodalanishi (N=462) (Kruskal-Uollis H-mezoni bo'yicha)

Komponentlar	Yosh davrlari	N	Ranglar o'rtachasi	H	p
Vaqtni mo'ljalga olish	Ilk o'spirinlik	169	200,03	21,597	p≤0,001
	O'spirinlik	147	230,33		
	Yetuklik	146	269,10		
Qadriyatlar	Ilk o'spirinlik	169	193,78	23,525	p≤0,001
	O'spirinlik	147	264,11		
	Yetuklik	146	242,33		
Inson tabiatiga nazar	Ilk o'spirinlik	169	211,04	13,215	p≤0,001
	O'spirinlik	147	223,38		
	Yetuklik	146	263,35		
Bilish ehtiyojlari	Ilk o'spirinlik	169	209,34	7,918	p≤0,05
	O'spirinlik	147	239,24		
	Yetuklik	146	249,35		
Ijodkorlikka intilish	Ilk o'spirinlik	169	207,35	13,405	p≤0,001
	O'spirinlik	147	261,76		
	Yetuklik	146	228,99		
Avtonomlik	Ilk o'spirinlik	169	235,76	1,501	p>0,05
	O'spirinlik	147	220,52		
	Yetuklik	146	237,62		
Spontanlik	Ilk o'spirinlik	169	237,00	2,115	p>0,05
	O'spirinlik	147	238,25		
	Yetuklik	146	218,34		
O'zini o'zi anglash	Ilk o'spirinlik	169	226,64	7,813	p≤0,05
	O'spirinlik	147	219,21		
	Yetuklik	146	249,50		
Autosimpatiya	Ilk o'spirinlik	169	232,62	0,338	p>0,05
	O'spirinlik	147	235,20		
	Yetuklik	146	226,47		
Aloqa o'rnatish	Ilk o'spirinlik	169	234,01	0,203	p>0,05
	O'spirinlik	147	227,55		
	Yetuklik	146	232,57		
Muloqotdagi egiluvchanlik	Ilk o'spirinlik	169	231,01	0,272	p>0,05
	O'spirinlik	147	227,81		
	Yetuklik	146	235,78		



1-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, ilk o'spirinlik, o'spirinlik va yetuklik davridagi shaxslarda orasida namoyon bo'ladigan o'zini o'zi faollashtirishning vaqtni mo'ljalgacha olish komponenti o'rganilganda, ushbu holat bo'yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etildi ($H=21,597$; $p \leq 0,001$). Bundan ma'lum ko'rinadiki, insonning hozirgi paytda yashayotgan lahzalariga asosiy e'tiborni qaratishi, o'z hayotini "keyinroq"ga qoldirib, o'tmish yoki kelajakdan boshpana topishga urinmaslik holatlari ilk o'spirinlar va o'spirinlarga nisbatan yetuklik davridagi shaxslarda yuqoriroq rivojlangan bo'ladi. Natijalarning bu tarzda namoyon bo'lishi ilk o'spirinlik va o'spirinlik davridagi shaxslarda kelajakda amalga oshirishni rejalashtirgan ishlarning ko'pligi, o'z vaqtini tog'ri taqsimlay olmaslik holatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa ushbu yoshdagi o'spirinlarning ayni paytda o'zlari bilan ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatiga chuqur e'tibor qaratishiga jiddiy to'siq bo'ladi.

Qadriyatlar komponentining namoyon bo'lishi bo'yicha turli yosh davrlaridagi shaxslarning ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanganda, ular o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ($H=23,525$; $p \leq 0,001$). Mazkur ko'rsatkichlarga tayanib, ta'kidlash joizki, turli yoshga ega bo'lgan insonlarning qadriyatlar sohasi bir-biridan farq qilib, o'zi uchun qadri deb hisoblangan omillarni tahlil qilish, kelgusi hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadigan qadriyatlariga asosiy e'tiborini berish hamda shu kabi boshqa holatlar, asosan, ilk o'spirinlik va yetuklik davridagi shaxslarga nisbatan o'spirinlar o'rtasida tez-tez kuzatilishi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi. Tafovutlarning bunday ifodalanishini ilk o'spirinlar hayoti uchun zaruriy bo'lgan qadriyatlarini anglash darajasi undan keyingi ontogenez bosqichlariga nisbatan pastligi, yetuklik davrida esa qadriyatlar sohasining to'liq anglanganligi natijasida unga asosiy urg'uni berishning susayishi holatlari bilan izohlash mumkin.

O'zini o'zi faollashtirishning inson tabiatiga nazar komponenti namoyon bo'lishi bo'yicha ilk o'spirinlik, o'spirinlik va yetuklik davridagi shaxslar natijalari o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ($H=13,215$; $p \leq 0,001$). Buni shunday izohlash mumkinki, turli davrlaridagi shaxslarda barqaror asos sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan samimiy va ijobiy shaxslararo munosabatlar, insonlarga nisbatan xayrixohlik, shu bilan birga, jamiyat a'zolariga bo'lgan ishonch, xolislik, betaraflik va yaxshilik kabi ijobiy sifatlar ilk o'spirinlik hamda o'spirinlik davriga qaraganda yetuklik davrida ko'proq namoyon bo'ladi. Demak, yetuklik davridagi shaxslar o'zga insonlarning muammolariga yaxshiroq ahamiyat berishadi va ijobiy munosabatda bo'lishga intilishadi. Tadqiqot natijalarining har xil yoshli shaxslarda tafovutlanishini shunday yondashish mumkinki, yetuklik davridagi insonlar hayotiy muammolarga undan oldingi psixik taraqqiyot bosqichlaridagi odamlarga nisbatan ko'proq duch kelishi, bunday qiyin vaziyatlarda o'zgalar yordamini his qilishi natijasida boshqalar bilan ro'y bergan o'xshash murakkab vaziyatlarda ularga yordam ko'rsatishning ahamiyatini anglashadi hamda empatik yondashishadi.

Bilish ehtiyojlarining namoyon bo'lishi bo'yicha turli yosh davrlaridagi shaxslarning natijalari qiyosiy o'rganilganda, ular o'rtasida ahamiyatli tafovutlar qayd etildi ($H=7,918$; $p \leq 0,05$). Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, turli yosh davrlaridagi shaxslarda yangi bilim va axborotlarga intilish darajasi bir-biridan farq qilib, o'zini o'zi anglash, har doim yangi taassurotlarga tayyor turish, har qanday ehtiyojni qondirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan yangi narsalarga qiziqish, o'zgachalikka tashnalik kabi psixologik xususiyatlar yetuklik davridagi insonlarda tadqiqotga jalb qilingan qolgan ikkita davr a'zolariga nisbatan ko'proq tarzda yuzaga keladi. Bundan ko'rinadiki, shaxs yoshining ortib borishi natijasida yangi axborotlarni o'zlashtirish, o'z hayotining farovonligini ta'minlaydigan omillarni bilishga harakat qilish jihatlari yanada takomillashib boradi. Yetuklik davridagi shaxslarda biror narsani o'rganishga vazminlik bilan yondashishi, sabr-toqatlilik sifatleri, ommaviy axborot vositalarini muntazam ravishda kuzatib borishga moyillik jihatlari o'spirinlarga nisbatan yaxshiroq rivojlanganligi sababli, ularda ushbu shkala bo'yicha yuqori natijalar qayd etilgan bo'lishi mumkin.

Ilk o'spirinlik, o'spirinlik va yetuklik davridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirishning muhim komponenti bo'lgan ijodkorlikka intilish bo'yicha yosh davrlari kesimida ahamiyatli tafovutlar mavjudligi kuzatildi ($H=13,405$; $p \leq 0,001$). Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, hayotga nisbatan ijodiy munosabat bildirish, faoliyatga nisbatan kreativ yondashish, takrorlanmas jihatlarga katta e'tibor qaratish kabi xususiyatlar o'spirin yoshidagi yigit va qizlarda ilk o'spirinlik hamda yetuklik davridagi insonlarga qaraganda yuqoriroq darajada shakllangan bo'ladi. Qayd etish lozimki, aynan o'spirinlik davridagi sinaluvchilarda ijodkorlikka intilishning yuqori bo'lishi bir qator omillar, jumladan, ulardagi fan-texnika yutuqlarini tezda o'zlashtirib olishga moyillik, original g'oyalarni ilgari surish orqali jamiyatda o'z o'rnini topishga bo'lgan ehtiyojning balandligi, shuningdek, ushbu davrdagi shaxslarning aksariyat qismi talabalar ekanligini hisobga olsak, oliy ta'lim muassasalaridagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishdagi ko'nikmalar bilan aloqador bo'lishi mumkin.

Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi anglash xususiyati bo'yicha ularning natijalari taqqoslanganda, ushbu qiymatlar orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ($H=7,813$; $p \leq 0,05$). Natijalardan ma'lumki, o'zining istak va ehtiyojlariga sezgirlik darajalari inson umrining pog'onalari kesimida tafovutli jihatlari ko'zga tashlanib, yetuklik davridagi shaxslarda qolgan ikkita ontogenez bosqichiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Demak, yetuklik davridagi insonlarda o'z shaxsiy mohiyatini ajratib ko'rsatadigan sifatleri to'laroq anglash, o'zlarining qarashi va bahosi tashqi ijtimoiy me'yorlar bilan o'zgarmaslik jihatlari yuqori darajada namoyon bo'lishi ayon



bo'ladi. Natijalarning bunday tarzda ifodalanishi yetuklik bosqichidagi shaxslarda hayotiy tajribaning ko'pligi, muvaffaqiyatsiz holatlarga sabab bo'lgan ichki psixologik xususiyatlarni farqlash ko'nikmalari va ularni takrorlamaslikka bo'lgan intilish darajalari yangi individual sifatlarni ro'yobga chiqarishga zamin hozirlashi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

XULOSA

Aniqlangan ko'rsatkichlar asosida qayd etish joizki, tadqiqot natijalariga ko'ra turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish komponentlari bo'yicha ahamiyatli farqlar aniqlandi. Jumladan, yetuklik davridagi shaxslarda ilk o'spirinlik va o'spirinlik davridagi insonlarga nisbatan o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlari yuqoriroq rivojlangan bo'ladi. Ushbu tafovutli jihatni vaqtini mo'ljalga olish, inson tabiatiga nazar, bilish ehtiyojlari, o'zini o'zi anglash xususiyatlarida ko'rish mumkin. Bundan tashqari, o'spirinlik davridagi insonlarda esa o'zini o'zi faollashtirish xususiyatining qadriyatlar va ijodkorlikka intilish komponentlari yaxshiroq shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goldstein K. The Organism: A Holistic Approach to Biology Derived from Pathological Data in Man. – New York: American Book Company, 1939. – 515 p.
2. Маслоу А. Мотивация и личность / А. Маслоу. - СПб.: Евразия, 2001.- 475 с
3. Петровская Л.А. Теоретические и методологические проблемы социально-психологического тренинга. – М.: МГУ, 1982. - 168 с.
4. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. В 2-х т./ Пер. с нем./ Под ред. Б.М.Величковского; предисл. Л.И.Анцыферовой, Б.М.Величковского. – М.: Педагогика, 1986. Т.2.- 392 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.